






Nogironligi bor insonlarning inson ijtimoiy xizmatlari markazlaridan foydalanishdagi imkoniyatlari

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen **nogironligi bor insonlarning inson ijtimoiy xizmatlari markazlaridan foydalanishdagi imkoniyatlari** haqida bilib olasan.
	Nogironligi bor insonlarni qo‘llab quvvatlash uchun O‘zbekiston Prezidenti huzurida: ● “Ijtimoiy himoya milliy agentligi” ● “Ijtimoiy himoya agentligining hududiy bo‘limlari” tashkil etildi.
	Ijtimoiy himoya agentligining hududiy bo‘limlari **inson ijtimoiy himoya markazlari** deyiladi.
	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari: ● og‘ir ahvoldagi oilalarga yordam berish

	● o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz yashaydigan yoki yolg‘iz keksalar ● nogironligi bor insonlarga uyda parvarish qilish, tibbiy sog‘lomlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish ● nogironligi bor insonlar uchun protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash ● sifatli reabilitatsiya va ruhiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini tashkil etadi.
	Inson ijtimoiy xizmatlari markazlarining nogironligi bor insonlarga ko‘rsatadigan xizmatlarining eng muhimi bu – jismoniy nogironligi bor insonlarga tibbiy reabilitatsion ortopedik vositalar va boshqa protez buyumlarini olishda amaliy yordam berish.
	Senda jismoniy nogironlik bo‘lsa protez buyumlarini olish uchun o‘zing yashaydigan joydagi inson ijtimoiy xizmatlari markazlariga ariza bilan murojaat qilishing kerak.

	Jismoniy nogironligi bor insonlarga ortopedik protez buyumlarini berish Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-apreldagi 253-son qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.
	Qarorga ko‘ra: • nogironligi bor insonlarni • nogironligi bor bolalarni • nogironlik guruhiga ega bo’lmagan pensiya yoshidagi insonlarni protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash tartibi belgilangan.
	Nogironligi bor insonlar va nogironligi bor bolalarning protez buyumlari yoki reabilitatsiya vositalariga muhtojligi nogironlik haqidagi ma’lumotnomaga qarab belgilanadi.
	Shifokorlar guruhi seni nogironligi bor inson deb belgilasa, protez moslamasi yoki reabilitatsiya

	vositasiga muhtojliging belgilanib, nogironlik haqidagi ma’lumotnoma rasmiylashtiriladi.
	Ijtimoiy himoya bilan bog‘liq hujjatlar shakllanishi bilan sen protez buyumlari yoki reabilitatsiya vositasini sotib olishing mumkinligi haqida SMS-xabar yuboriladi.
	Protez buyumlari yoki reabilitatsiya vositasini sotib olishing mumkinligi haqida sening yashash joyingdagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining “Ijtimoiy himoya” tizimiga bu haqida xabar keladi.
	Sen bir oy ichida protez buyumlari yoki reabilitatsiya vositasini sotib olish uchun buyurtma bermasang, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi buyurtma berilmaganligi sabablarini o‘rganadi.

	“Inson” ijtimoiy xizmatlari markazlari nogironligi bor insonlarni turli moddiy yordamlar, bolalar nafaqalari bilan ham ta’minlaydi.
	Nogironligi bor inson kam ta’minlangan oila ro‘yxatida bo‘lib, moddiy yordam yoki bolalar nafaqasini olishmoqchi bo‘lsa, inson ijtimoiy xizmatlari markazlariga ariza bilan murojaat qilishi kerak.
	Seni qiziqtirgan savollarga inson markazlariga borib yoki 1140 raqamiga telefon qilib ma’lumot olishing mumkin.